

## NUTQ MADANIYATI INSONIYAT UMUMMADANIYATINING BIR QISMI

**Dilobar Imamkulovna Gulamova**  
Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

O'zbekiston istiqlolining eng buyuk ne'matlaridan biri sifatida til mustaqilligini ko'rsatish mumkin. Til mustaqilligisiz mustaqil davlatning o'zini ham tasavvur etish mumkin emas. Til va uning inson hayotida tutgan o'rni, beqiyos ahamiyati, muomala madaniyati, nutq odobi haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega. Nutq madaniyati insoniyat umummadaniyatining bir qismidir. Kishi o'z nutqi orqali fikrlash qobiliyatini, dunyoqarashini, atrofidagi voqea hodisalarga bo'lgan o'z munosabatini namoyon qiladi.

**Kalit so'zlar:** Til, nutq, fikr, nutq madaniyati, ta'lim-tarbiya.

## ЭВФЕМИЗМЫ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ УЧЕНИКОВ

**Дилобар Имамкуловна Гуламова**  
Учитель Азиатского международного университета

### АННОТАЦИЯ

Одним из величайших благ независимости Узбекистана является языковая независимость. Невозможно представить независимое государство без языковой независимости. Бесспорна важность приобретения знания и навыков о языке и его роли в жизни человека, его бесценном значении, культуре общения, речевом этикете. Культура речи является частью культуры человека. Через свою речь человек показывает свою способность мыслить, свое мировоззрение, свое отношение к происходящим вокруг событиям.

**Ключевые слова:** Язык, речь, мышление, культура речи, воспитание.

## EUPHEMISM AS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' SPEECH CULTURE

**Dilobar Imamkulovna Gulamova,**  
Lecturer at Asia International University

## ABSTRACT

One of the greatest blessings of Uzbekistan's independence is linguistic independence. It is impossible to imagine an independent state without linguistic independence. The importance of acquiring knowledge and skills about the language and its role in human life, its invaluable significance, communication culture, and speech etiquette is indisputable. The culture of speech is part of human culture. Through his speech, a person shows his ability to think, his worldview, and his attitude to the events taking place around him.

**Keywords:** Language, speech, thinking, a culture of speech, education.

O'zbekiston istiqlolining eng buyuk ne'matlaridan biri sifatida til mustaqilligini ko'rsatish mumkin. Zero, til mustaqilligisiz mustaqil davlatning o'zini ham tasavvur etish mumkin emas. Shu ma'noda tilimiz jozibasi, uning inson hayotida tutgan o'rni, beqiyos ahamiyati, muomala madaniyati, nutq odobi haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega. Nutq madaniyati insoniyat umummadaniyatining bir qismidir. Kishi o'z nutqi orqali fikrlash qoviliyatini, dunyoqarashini, atrofidagi voqea hodisalarga bo'lgan o'z munosabatini namoyon qiladi.

Nutq nima? Nutq arabcha so'z.1. Fikrni so'z orqali ifodalash qobiliyati, mahorati. 2. Amaldagi so'zlashuv jarayonidagi til.

Til vositalari orqali fikr bayon qilish va uni anglash nutqdir. Nutq 2 ko'rinishda namoyon bo'ladi: 1. Og'zaki nutq. 2. Yozma nutq. Og'zaki nutq tovush, intonatsiya, pauza bilan ish ko'rsa, yozma nutq harf va turli grafik belgilar bilan ish ko'radi. Nutq o'z tabiatiga ko'ra individualdir. Har kimning o'z nutqi mavjud. Nutq ko'rinishlari vazifaviy uslubiy xususiyatiga ko'ra: ilmiy, rasmiy, publististik, so'zlashuv va badiiy bo'lishi mumkin<sup>1</sup>.

Madaniyat nima? Madaniyat arabcha so'z bo'lib, madina, shahar demak. 1. Jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui. 2. O'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik, ma'rifat. 3. Turmushning ma'rifatli kishi ehtiyojlariga mos keladigan sharoitlari yig'indisi<sup>2</sup>.

Nutq madaniyati nima? Nutq madaniyati, S.I. Ojegov lug'atiga ko'ra, fikrlarni til vositalari bilan to'g'ri, aniq va ta'sirchan qilib bera olishdir. Keng ma'noda esa nutq madaniyati nutqiy ta'sirchanlikni, ijodiy yorqinlikni, o'tkirlik va ifodalilikni bildiradi. Madaniy nutq deb, tilning mavjud barcha vositalari va ular imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq tarzda o'rinli, unumli foydalanilgan nutqqa aytiladi. Nutq madaniyati esa ana shu tilni, aloqa aralashuv qurolini ishlatishga bo'lgan munosabatdir. Bu munosabat qanchalik yuqori bo'lsa, nutq ham shunchalik madaniy bo'ladi. Nutq madaniyatini to'g'ri egallagan kishilarni xalqimiz notiqlar

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати «Н» ҳарфи Ziyouz.com kutubxonasi (barcha kitoblar) - Lug'atlar

<sup>2</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати «М» ҳарфи Ziyouz.com kutubxonasi (barcha kitoblar) - Lug'atlar

deb ataydilar. Xalq orasida notiqlik san'at darajasiga ko'tarilganligini ham bilamiz. Jumladan, A.Navoiy notiqlik san'atini qadrlaydi va yuksak baholaydi. U o'zining "Mahbubul qulub" asarining 24-bovini to'laligicha "Nasihah ahli va voizlar zikri"ga bag'ishlaydi. Shoirning fikricha: "Voiz uldurki, majlisga kirgan to'lg'ay va to'la kirgan xoli bo'lg'ay".

Nutqiy madaniyatning muhim belgilaridan biri fikrni to'g'ri, mazmunli bayon qilishdir. Nutqda qo'llanadigan har qanday til vositasining kuchi adabiy til me'yorlariga tayanilgandagina ruyobga chiqadi. Adabiy tilning fonetik-orfoepik, leksik-semantik va grammatik me'yorlari talablariga to'la mos keladigan nutq to'g'ri nutqdir. Nutq madaniyati, nutqning to'g'riligi grammatika bilan uzviy bog'langan. Grammatik me'yorlarni yaxshi bilish fikrni yuqori saviyada shakllantirishga yordam beradi. Nutqda grammatik shakllarning ma'no va tuzilishiga befarq qarash, vaziyatga mos tushmaydigan so'zlarni sintagmatik munosabatga kiritish, gaplarni o'rinsiz takrorlash aytilayotgan fikrni xiralashtiradi. To'g'ri nutqqa qo'yiladigan talablardan biri uning grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirilishidir. Shuning uchun to'g'ri nutq tuzishda leksik vositalar bilan bir qatorda grammatik ko'rsatgichlarga ham etarli e'tibor qilish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, qaratqich kelishigi qo'shimchasi **-ning** shaklini belgili va belgisiz qo'llash bilan bog'liq muammolar bor. Qaratqich kelishigi qo'shimchasini tushirib qoldirganda, gapning ma'nosi, mazmuniga zarar etmasa, nutqqa ixchamlik, engillik beradi: Sharq yulduzi, xalq ijodi, til oldi, til orqa va h.k. Ba'zi hollarda qaratqich kelishigi qo'shimchasining tushirib qoldirilishi, axborotning to'laqonligini buzadi, aloqa jarayonini og'irlashtiradi, o'quvchi fikrini chalg'itadi: Askar otasi deb yozganda, matnni o'qib chiqmasdan turib, gap kim haqida borayotganligini bilib bo'lmaydi: askarning otasi haqidami yoki askar birovning otasimi? Demak, to'g'ri nutq tuzishda har bir grammatik shaklning o'ziga xos belgisi va mazmuni hisovga olinadi.

Taniqli so'z san'atkori Abdulla Qahhor o'z davridayoq ("San'atkor" hikoyasida) oramizda qaratqich va tushum kelishiklarini farqlamay ishlatadiganlar uchrashini qattiq tanqid ostiga olgan edi: Pojarno'y "gugurtni erga tashlamang", dedi. Rejissyorimiz esa "gugurtning erga tashlamang", dedi. qanday chiroylik!<sup>1</sup>

To'g'ri nutq tuzishda sintaktik me'yorlarga ahamiyat berish: gapda mantiqiy bog'lanishlarga, jummalarni ortiqcha cho'zib yubormaslikka ega-kesim mosligi hamda ikkinchi darajali bo'laklarning bog'lanishiga diqqat qilish ham talab etiladi. Aniqlik madaniy nutqning asosiy belgilaridan biri bo'lib, nutqiy to'g'rilik bilan chambarchas bog'liqdir. Nutqiy to'g'rilik bo'yicha yuqorida bayon qilingan barcha fikrlar nutq aniqligiga ham aloqador. Nutq aniqligi lug'aviy va grammatik vositalarning to'g'ri aytilishi va yozilishi orqali ro'yobga chiqadi. Nutqiy aniqlik deyilganda, tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar bilan ularning aloqa jarayonidagi atamasi bo'lgan material o'rtasidagi mutanosiblik tushuniladi. Yaxshi nutqning

<sup>1</sup> Қиличев Э., Қиличев Б.Э. Нотиқлик санъати ва услубият асослари. –Бухоро, 2005.

kommunikativ sifati bo'lgan aniqlikni "nutq-nutq vaziyati-voqelik", "til-nutq-me'yor-tafakkur" munosabati asosida belgilash mumkin.

Nutq aniq bo'lishi uchun, eng avvalo, so'zlar o'zi ifodalab kelgan denotati ma'nosini to'la aks ettirishi kerak. Agar so'zning denotati haqida to'g'ri ma'no yoki tasavvur bo'lmasa, bunday nutq aniq bo'lmaydi. Xuddi shu o'rinda to'g'ri nutq va aniq nutq o'zaro farqlanadi. To'g'ri nutq bu "nutq-til" munosabati asosida qurilib, asosan, lingvistik faktlarga suyansa aniq nutq "nutq-borliq-voqelik" munosabati asosiga qurilgan bo'lib, haqiqatni fahmlash va bilishga qaratilgan bo'ladi. Tafakkur qilish, bilish nutq shaklida ro'yobga chiqadi. Shu sababli aytilayotgan fikr tinglovchilar tomonidan qabul qilinsa, tushunilsa bunday nutq aniq bo'lib o'z maqsadiga erishgan bo'ladi. Shuning uchun so'zlovchi nima yoki kim haqida gapirayotganligini har tomonlama chuqur tushungan bo'lishi kerak. Aks holda nutq aniq bo'lmaydi. Fikr tinglovchiga to'liq borib etmaydi.

Tilning fonetik, leksik, frazeologik va grammatik qonuniyatlarini puxta o'rganish, eng avvalo, ulardagi hissiy ta'sirchanlik unsurlarini payqash va aloqa jarayoniga tadbiiq etish orqali ta'sirchan hosil qilinadi. Shuningdek, ta'sirchan nutq umumadabiy me'yorlar va kommunikativ-uslubiy me'yorlarning uyg'unligi asosida ham yuzaga keladi.

So'zning predmetlik (denotativ) ma'nosi uning baho (konnotativ) ma'nosi bilan bog'langan bo'ladi. So'zdagi konnotativ ma'no va uning nutqining vazifaviy uslublariga munosabatiga ko'ra o'zbek tili leksikasi asosan ikkiga: konnotativ ma'noga ega bo'lmagan, barcha nutq uslublarida teng ishlatiladigan, hamma uchun umumiy bo'lgan neytral so'zlar hamda konnotativ ma'noli, uslubiy chegaralangan so'zlarga bo'linadi. Uslubiy neytral so'zlar kundalik turmush voqea - hodisalari, tabiat va jamiyatdagi belgi, harakatlarning atamasi bo'lgan to'g'ri ma'noli so'zlardir: oy, non, paxta, shamol, qizil, besh, yuz, o'qi, ishla, erta, kech. Bunday so'zlar ko'chma ma'noda ishlatilsa, uslubiy bo'yoqqa ega bo'ladi.

Konnotativ ma'noli so'zlar tushuncha ifodalash bilan birga qo'shmacha emotional-ekspressiv yoki baho ma'nosini ham ifodalaydi: chehra so'zida atash va ijobiy ma'no, aft so'zida esa atash va salbiy ottenka mavjud. Yana solishtiring: qaramoq – o'qraymoq, kulmoq– iljaymoq, gapirmoq – laqillamoq, chiroyli–momoqaymoq.

Ayrim so'zlarning o'zagidan konnotativ ma'no anglashilsa (yuz- aft, bo'sh - lavang), ba'zi so'zlarga turli qo'shimchalar qo'shish(onajon, otajon, qizgina) yoki so'zlarni qo'chma ma'noda qo'llash ("tulki", "quyon" ayyor odamga nisbatan) orqali ifodalanadi. So'zlardagi denotativ va konnotativ ma'nolarni farqlay bilish, ulardan oqilona foydalanish hamda o'z o'rnida ishlatish zarur. Shunga qaramay, ayrim badiiy asarlarda, gazeta va jurnal maqolalarida so'z tanlab ishlatish bilan bog'liq qator kamchiliklar uchraydi: Sigir boshini ko'tarib, atrofga nazar tashlaganicha tillarini yalardi. (Gazetadan.) Bu gapga diqqat qilinsa, so'zlarning noto'g'ri tanlanganligi yaqqol ko'zga tashlanadi (nazar tashlaganicha, tillarini yalardi). Yoki: Siz bilan tanishganim bilan faxrlanaman. Bu gapda bilan ko'makchisi ortiqcha ishlatilgan. To'g'risi: Siz bilan tanishganimdan faxrlanaman. Xuddi shuningdek, so'zlarni keraksiz o'rinda takror

qo‘llash ham nutq ta’sirchanligini pasaytiradi, tinglovchini zeriktiradi. Buni mutaffakkir shoir Alisher Navoiy ham qayd etadi:

Bir deganni ikki demak xush emas,  
So‘z chu takror o‘ldi, dilkash emas.<sup>1</sup>

Umummadaniyatning ajralmas bir qismi bo‘lgan og‘zaki va yozma nutq madaniyatiga, adabiy me‘yorlarga rioya etish masalasiga doimo e’tibor berish zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o‘zbek tili. Darslik. – Buxoro: Durdon, 2021.–555 b. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119110>
2. Yuldasheva D.N. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (OO‘MTV tasdiqlagan darslik).– Buxoro: Durdon, 2021.–445 b. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119112>
3. Bunday ona tili ta’limi o‘zimizni aldashdan boshqa narsa emas!” – Tilshunos olim bilan suhbat/ 27.08.2019. kun.uz
4. Юлдашева Дилором Нигматовна. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури талаблари асосида таълим мақсадини белгилашнинг дидактик асослари: педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.–Тошкент, 2007.–124 б.
5. Yuldasheva D.N. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ona tili o‘qituvchilariga ochiq xat: Maktab partasida o‘tirgan bolalarimizning barchasi tilshunos bo‘lishi kerakmi?// “Ma’rifat” gazetasi 2020-yil 4-mart, chorshanba –№ 10 (9283)-son. 10-11-sahifalar.

---

<sup>1</sup> Навоий А. Лисонут тайр.–Т.: Ф.Фулум номидаги нашриёт матбаа бирлашмаси, 1991. – 465 б.